



XORAZM O'G'UZ SHEVALARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING QO'LLANILISHI

Shamuratova M.I.

Nukus, O'zbekiston

*O'zbekiston davlat, san'at va madaniyat instituti Nukus filiali
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida o'qituvchisi*

Frazeologik sinonimiya bo'yicha ko'plab tadqiqotchilar ish olib brogan. Bu hodisa turli tillar, jumladan, rus, nemis, ingliz, o'zbek, ozarbayjon, turk, boshqird va boshqa tillar materiallari asosida ham o'rganilgan. Frazeologik sinonimiya masalasining tilshunoslikda o'rganilish tarixi Sh.Rahmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida ham qisman o'z aksini topgan. Olim shuni alohida ta'kidlaydiki, "frazeologik sinonimiya uchun umumiy va eng muhim mezon – bu semantik mezondir. Har bir sinonimik uyadagi (sinonimik qatordagi) frazeologik birliklar obyektiv borliqdagi bir xil tushunchalarni anglatishi kerak va shu bilan birgalikda, bir xil ma'noni anglatishi shart". Chunki, har bir frazeologik sinonimlarning asosida turli obrazlar yotadi.

Tilshunos M.Vafoeva o'zbek tilidagi frazeologik sinonimlarni alohida tadqiq qilgan [1; 7-21]. Qoraqalpoq tilshunosligida frazeologik sinonimiya alohida o'rganilmagan bo'lsa ham, darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalarda bir qancha fikrlar mavjud.

Tildagi frazemalar lug'aviy ma'nosi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, sukut amalini bildiradigan *og'z(i)ga tolqon sol-, og'z(i)ga qatiq ivit-, mum tishla-* frazemalari ayni bir lug'aviy ma'noni – "mutlaq gapirma-", "suhbatda mutlaqo qatnashma-" ma'nosini anglatadi.

Xuddi shu sinonimik uyaga mansub bo'lgan "*og'zining tanobi qochmoq*" iborasi esa nisbatan kam qo'llanadi va asosan badiiy nutq uslubiga xoslanishi bilan ajralib turadi.

Frazeologizmlarning shakllanishida hamda nutqning ta'sirchanligini oshirishda frazeologik sinonimlar va variantlilik ham jozibali, obrazli ifodalanishda muhim til birikmalari hisoblanadi. Bunday holatni biz aynan o'zbek shevalaridagi iboralarda ham ko'rishimiz mumkin.

O'rganilayotgan sheva og'zaki nutqida ishlatiladigan iboralarning ham ko'plab sinonim variantlari uchrab turadi.

Biz quyida Xorazm o'g'uz shevalaridagi iboralarning sinonimlarini izohlab o'tamiz. Masalan: ushbu sheva og'zaki nutqida juda charchamoq ma'nosini bildiruvchi «*Og'zini suvi oqdi*» iborasi mavjud bo'lib, bu ibora o'zbek adabiy tilidagi "*Holdan toymoq*" iborasiga teng keladi. Shuningdek, ushbu iboraning shu sheva tilida „*Oyoqinnan o't chiqdi*“ sinonim iborasi ham uchrab turadi. Bu iboraning birinchi iboradan deyarli farqi yo'q. Masalan: To'y o'yda ish atavarip, oyoqimnon o't chiqdi yoki, buni o'rniga og'zimni suvi oqdi birikmasini ham qo'llash mumkin.

Endi, Qo'shko'pir aholi shevasi nutqida bu iboralar bilan yana bitta sinonimlik hosil qiluvchi ibora borki, bu ibora "*Go'zzini ko'ki so'kildi*" tarzida qo'llanadi. Bu ibora ham qattiq charchadi ma'nosini bildiradi. Garchi uning ma'nosi ham yuqoridagi iboralar bilan deyarli bir xil bo'lsa-da, bu iboraning ahamiyatli jihati ham borki, ibora sal tor



ma'noda ishlatilib, faqat ko'z orqali qilinadigan jismoniy harakatlarga nisbatangina (kompyuterda ishlash, tikuv mashinasida ishlash) ishlatiladi. Jumladan: Dinmin moshin tikavarip go'zzimni ko'ki so'kildi (Shu sheva og'zaki nutqidan).

«**Yuzi eshakni derisidin qolin**» ayrim holatlarda «**Yuzi eshakni derisinnanam qoling**» ba'zida faqatgina «**Yuzi qoling** tarzida ham qo'llaniluvchi ushbu ibora Xorazm o'g'uz shevalarida uyalmaslik, andisha qilmaslik ma'nolarini bildiradi. Uning o'zbek adabiy tilida «Yuzi chidaydi», «Beti chidaydi» singari variantdoshlari ham shu sheva og'zaki nutqida almashinib qo'llanadi. Masalan: Uzi qiz bolo bo'som yuzi eshakni derisinnin qolinakan, gapam ta'sir atmidi (Qo'shko'pir shevasida).

«**Yuzi gun go'rmagan**» iborasi oppoq degan ma'noni bildiradi. Bu iboraning o'g'uz shevasida «**Marqa**» degan sinonimi ham uchraydi. Bu iboralarni esa sinonim ibora desak bo'ladi, chunki bu iboralarning ma'nosi deyarli bir-xil yozilish va aytilish jihatdan umuman farq qiladi. Qizingiz nabalo oppoq, yuzi gun go'rmananqu (Shu sheva og'zaki nutqidan).

Shuningdek, Xorazm o'g'uz shevalarining Xiva shevasida bir necha variantlarda qo'llanuvchi «**Qo'yloni qumo yuvarip**» iborasi mavjud bo'lib u «**Pochcho poroxot**», «**Parvoyi palakda, ishtoni talakda**» iboralari bilan sinonim tarzida ham qo'llaniladi. Beg'am, beparvo, parvoyiga kelmaslik degan ma'nolarni bildiradi. Bu iboralarning o'zbek adabiy tilidagi «**Dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi**», «**Parvoyi falak**» kabi sinonimlari mavjud. Jumladan: *Bu kishi hamma voxt shunnin: qo'yloni qumo yuvarip o'tirodi* (Xiva shevasida).

«**Yurakim yorildi**» iborasi qo'rqmoq ma'nosini bildirib o'zbek adabiy tilidagi «Kapalagi uchdi», «O'takasi yorilayozdi» iboralariga teng kela oladi va qo'rqib ketmoq ma'nosini ifoda etadi. Bu iboraning shu shevadagi «**Imonim ushti**» tarzida ham qo'llanadi. Bu iboralarni sinonim ibora desak xato bo'lmaydi. Masalan: *Voy voy boqirmin galavar yurakim yorildiquuu* (Shu sheva og'zaki nutqidan).

«**Bitini siqsong, qon chiqmidi**» iborasi tilimizdagi ziqna, qizg'anchiq so'zlariga teng keladi. Bu iboraning shu sheva tilida «**Bitina qon barmidi**», «**Bitini siqib qonini yolidi**» kabi sinonim variantlari ham qo'llanadi. Bu iboraning barchasi bir-biri bilan sinonimlik qatorni tashkil qiladi. Jumladan: *Bi boyloni ko'pisi shunning bo'lodi uzi, bitina qon barmidi* (Shu sheva og'zaki nutqidan).

Shuningdek ushbu shevalarda «**Borg'ono boldiz, galgana yengga**» kerakli va keraksiz joylarga ham boraveradigan, hamma joyda topiladigan, odamga nisbatan qo'llaniladi. Masalan: *O'lmagay bi bolo hammed bo bi borg'ono boldiz, galgana yenggachilik atip*. (Shu sheva og'zaki nutqidan). Bu iboraga ibora hoida sinonim bo'luvchi birlik ham mavjud bo'lib, «**Yo'ldo ishtonini giyadi**» tarzida qo'llanadi. *Qidirishmo dasa yo'ldo ishtonini giyadi bi* (Shu sheva og'zaki nutqidan).

«**Og'zi qonoyincho so'llidi**» iborasi ko'p gapiradi degan ma'noda qo'llanadi bu ibora «**og'zi angakini yedi**» tarzida ham qo'llanadi. O'zbek adabiy tilidagi, «Labi-labiga tegmaydi» iborasi bilan ma'nodoshlik hosil qila oladi. Jumladan: *Quloqlorim og'rip getti mni gappinnan, uzam og'zi qonoyincho so'lladi oxir* (Shu sheva og'zaki nutqidan).

«**Go'zzi po'stinni yirtiqidin**» iborasi bir narsaga hayrat yoki, jahli chiqqan insonning ko'zini katta- katta ochilgan holatiga nisbatan ishlatiladi. Ma'nosi ko'zi katta ochilgan birikmasiga teng keladi. Ushbu shevada yana bitta shunga o'xshash ibora ham uchrab turadi, ya'ni «**Go'zzi kambog'olni otizidin**», «**Go'zzi o'g'rinikidin**» iborasi ham



yuqorida aytilgan ibora bilan o'xshash bo'lib, ko'zlari alang, jalang degan ma'noni ham bildiradi. **Mn:** *Voy voy nabalo, go'zzi kambog'olni otizidin* (Shu sheva og'zaki nutqidan).

O'g'uz lahjasi ayrim shevalarida “**Ita soyo barmidi**” iborasi mavjud bo'lib, **bu iboraning “Ita hayri deymidi**” variant ham mavjud. Bu iboralarning har ikkalasi hech kimga nafi tegmaydigan odamga nisbatan qo'llaniladi. Masalan: *Ita soyo barmin girip-chiqovarma* (Shu sheva og'zaki nutqidan). Ita hoyring deyming girip chiqovarding san (Shu sheva og'zaki nutqidan).

Shunday qilib, sinonimiya variantdoshlikka nisbatan ancha keng tushunchadir. Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar o'zbek tilining kuchli tasviriy-uslubiy manbalaridan biridir. Shuning uchun izohli, frazeologik va boshqa tip lug'atlarda frazeologik sinonimlar ham, frazeologik variantlar ham o'z aksini topishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол. фан.ном. ...дисс автореферати. –Тошкент, 2009. – С. 7-21.
2. Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. –Т., 1991. – 120 b.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. – Т.: Fan, 1966. – 264 b.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. –Т.: Universitet, 1992. – 126 b.
5. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari.: Filol.fan.dok. dis. ...avtoref. –Т., 1993. – 49 b.
6. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. SamDU. – S., 1999. – 200 b.